



AUTOIMMUN TIREOIDITNI DAVOLASHDA SELENOMETIONINNING KLINIK-LABORATOR SAMARADORLIGI

Qobilov Ulug‘bek Yusupovich

Rustamova Yulduz Alisherovna

Toshkent davlat tibbiyot universiteti Chirchiq filiali

Dolzarbligi: Hozirgi kunga kelib, Qalqonsimon bezning patologiyalari orasida autoimmun tireoidit keng tarqalgan bo‘lib, nafaqat gormonal balansni tiklash hamda autoimmun yallig‘lanishni boshqarish - davolash va profilaktika jarayonlarida muhim rol o‘ynaydi. Selenometionin antioksidant va immunomodulyator sifatida yuqoridagi muammoni bartaraf etishda yangi klinik algoritmlarni shakllantiradi.

Tadqiqot maqsadi: Selenometionin preparatini Xashimato tireoditi bilan og‘rigan bemorlarda antitanachalar titri, gormonallar konsentratsiyasi va terapevtik samaradorligini baholash.

Material va usullar: Tadqiqotda 60 nafar AIT bilan og‘rigan bemor ishtirok etdi. Respondentlar ikki guruhga ajratildi: asosiy guruh (n=30) standart davolash bilan birga 6 oy davomida selenometionin qabul qildi, nazorat guruhi (n=30) esa faqat an‘anaviy terapiya oldi. Statistik tahlil $P < 0,05$ darajasida amalga oshirildi.

Natijalar: quyidagi jadvalda 6 oylik dinamik o‘rganish yakunlari bo‘yicha olingan ma‘lumotlar aks ettirilgan:

1-jadval

Ko‘rsatkichlar	Asosiy guruh (n=30)	Nazorat guruhi (n=30)	P qiymat
Anti-TPO pasayishi (%)	31,7%	5,2%	$P < 0,05$
Erkin T3 miqdori (oshishi)	+13,8% ↑	+1,9% ↑	$P < 0,05$
Klinik simptomlar kamayishi	82,0%	22,0%	$P < 0,01$
TSH (TTG) barqarorlashuvi	74,5%	48,0%	$P < 0,05$

Tadqiqot davomida aniqlandiki, selenometionin preparatini qabul qilgan asosiy guruhda anti-TPO miqdori nazorat guruhiga nisbatan 6 barobar tezroq pastlashgan. Erkin T3 miqdorining T4ga aylanishi 13,8% ga oshishi periferik metabolizmi yaxshilanganligini anglatadi. Ta‘kidlash joizki, bemorlarning 82% qismida klinik holati ijobiy tomonga o‘zgarganligi va laborator ko‘rsatkichlar o‘rtasida ijobiy korrelyatsiya hosil qildi.



Xulosa: Kompleks terapiya tarkibiga selenometionin preparatini kiritish autoimmun jarayon intensivligini pasaytirishga xizmat qiladi, TTG darajasini me`yorlashtiradi va gormonlar konversiyasini yaxshilash bilan birgalikda yaqqol klinik natija beradi.